

## NUTQ KAMCHILIKLARINI TOPISHMOQLAR VOSITASIDA KORREKTSIYALASH OLIMLARNING QARASHLARI

JDPI Maxsus pedagogika kafedrası mudiri  
v.b.dots X.S.Akramova

Maxsus pedagogika, Defektologiya  
(Logopediya) mutaxassisligi 1 kurs magistri  
Mamatkulova Shaxnoza Rustam qizi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola olimlarning nutq nuqsonlarini topishmoqlar orqali tuzatish haqidagi qarashlarida nutqni rivojlantirish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarga asoslanadi.

**Tayanch so'zlar va iboralar:** topishmoqlar, tuzatish-pedagogik va davolash-sog'lomlashtirish tadbirlari, og'ir nutq nuqsonlari bo'lgan bolalar, og'ir eshitish qobiliyati buzilgan bolalar, og'ir ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar, aqliy zaif bolalar, aqli zaif bolalar, tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar, tafakkur, vizual-amaliy tafakkur, mantiqiy tafakkur rivojlanishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi, 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyuldagi 528-sonli «Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-sonli «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni hal etishda har bir pedagog ma'suldir.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning xar tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish alohida ta'kidlab o'tilgan. Bolaning to'laqonli va barkamol rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishi uchun u oilada, ta'lim tarbiya muassasasida, maxallada baxtlilik, sevgi, tushunish muhitida o'sishi muhim. Bu ayniqsa alohida yordamga muhtoj, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola uchun zarurdir. Chunki bunday bola o'zining yaqinlari tomonidan alohida e'tibor, yordamga muxtoj bo'ladi. Bola shaxsining har tomonlama rivojida nutq ahamiyati katta. Agar bola yangi, aniq taassurotlar olib turmasa, uning harakatlari va nutqining rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratib berilmasa, unda boladagi jismoniy va ruhiy rivojlanish orqada qoladi. Demak, nutqning to'g'ri tarkib topishi atrofdegilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muhiti va ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Lekin ba'zi sabablar tufayli bola nutqi rivojlanishi sustlashadi, orqada qoladi.

Bugungi kunda eng dolzarb bo'lgan muammolardan biri, ya'ni rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muxtoj bolalar bilan bog'liq muhim vazifalar va tizimdagi holat xususidagi masaladir.

Ushbu muammoni bartaraf etishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 19 iyuldagi 528-sonli "Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Mazkur qarorda jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida "Nizom" chop etilgan. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasasi ta'lim-tarbiya berish, korreksion-pedagogik va davolash-sog'lomlashtirish faoliyatini olib boruvchi muassasa hisoblanib ularning ixtisoslashuviga ko'ra oltita turlarga bo'linadi: **I turi:** Nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar; **II turi:** Eshitishida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar; **III turi:** Ko'rishida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar; **IV turi:** Psixik rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar; **V turi:** Aqliy rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar; **VI turi:** Tayanch-harakatlanish a'zolarida nuqsonlar bo'lgan bolalar. Agarda ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalarining muayyan turi bo'yicha bolalar soni guruh tashkil etish uchun yetarli bo'lmagan hollarda quyidagi turlarni birlashtirish orqali **ko'p tarmoqli** ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasasi tashkil etilishi mumkin deb nizomda ko'rsatilgan. Bular: I va II turlari, I va IV turlari, I va VI turlari; II va III turlari; IV va V turlari, IV va VI turlari; V va VI turlari. Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etishda ularning har xil turi bo'yicha birlashtirgan guruhda korreksion ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish majburiy shart hisoblanadi deyilgan.

Bolaning umumiy rivojlanishi qanchalik yuqori bo'lsa, uning og'zaki nutqi shunchalik yaxshi rivojlangan bo'ladi. A.V.Zaporojes nutqning umumiy tushunchasini ifodalab uning funksional yo'nalganligini ta'kidlagan holda - nutq fikrlar almashishga, o'zaro tushunishni amalga oshirishga hizmat qiladil, deydi. U nutqning sifat o'zgarishlarini, tafakkurning rivojlanishi, xususan, ko'rgazmali amaliy tafakkurdan mulohaza yurituvchi, mantiqiy tafakkurga o'tish bilan bog'laydi.

Qadimda bir donishmanddan:

- Insof nima? – deb so'radilar.
- Insof – odam o'ziga nimani ravo ko'rsa, boshqa kishiga ham shuni ravo ko'rishdir, - deb javob berdi donishmand.
- Eng yaxshi odam kim?
- Aqlli odam.
- qanday kishini aqlli odam desak bo'ladi?
- Aqlli odam o'ylamasdan biror ishga kirishmaydi.
- Bilimni nima narsa bilan bezaydi? SHijoatni-chi, saxiylikni-chi? – deb so'radilar.
- Bilimni – to'g'rilik, shijoatni – afv qilishlik va saxiylikni ochiq yuzlilik va shirin so'zlilik bezaydi.
- Insonning hayotda eng muhim orzu – tilagi nimalardan iborat?
- Sihat-salomatlik, farovon turmush va xotirjamlik.

Butun ta'lim-tarbiya mana shunga qaratilmog'i kerak. Bu yo'lda bay va rangbarang xalq og'zaki ijodiga suyanib ish ko'rish, shubhasiz, ham ota-onalar uchun, ham bolalar uchun chek-chegarasiz yutuqlar garovi hisoblanadi. Zero, inson olamga kelishi bilan alla eshitadi. Alla qo'shiqqa, qo'shiq esa ertak, maqol, masal, rivoyat, topishmoq, tez aytishga ulanib ketadi. Bularning hammasining zamirida inson-bola tarbiyasi yotadi. Bola ulg'aygani sari o'zi ham alla-qo'shiq aytadi. Ertak, maqol, masal, rivoyat, topishmoq tinglaydi va aytadi. SHular qanotida o'sib – ulg'ayadi. Demak, xalq og'zaki ijodi bola kamolotida asosiy vositalardan biri hisoblanadi.<sup>1</sup>M. Jumaboev “Topishmoqlarning ilmiy - ta'limiy ahamiyati” 3-4 bet

Hozirgi pedagoglar, psixologlar, lingvistlar ilk bo'g'in – maktabgacha ta'limda bolaning ravon bog'lanishli nutqini o'stirish zarurligini ta'kidlaydilar, chunki maktabgacha yoshdagi bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uning og'zaki nutqi rivojlanganligi hamda umumiy rivojlanganligi bilan bog'liq. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar lug'at boyligini ilmiy – metodik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ular maktabga kirish vaqtida amalda tilning grammatik va sintaktik shakllari tizimini egallagan bo'lishlariga qaramay, ularning nutqi yetuk bo'lmaydi. Bola lug'at zahirasiining kambag'alligi faqatgina uning faol nutqida ko'pgina leksik - grammatik kategoriyalar yo'qligidan emas, balki so'zlarni noto'g'ri qo'llash, ularning turli ma'nolarini hamda ko'chma ma'nolarini noto'g'ri tushunishdan iborat.

Bizning maktabgacha ta'lim muassasalaridagi kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, bolalar uchun atrof - muhitdagi mavhum tushunchalar, masalan, yil, oy nima ekanligi kabi haqidagi topishmoqlarni topish qiyinlik qiladi. Eng murakkabi kinoya topishmoqlar hisoblanadi. Ular topishmoqning asl mohiyatini tushunmaganligi sababli noto'g'ri javob beradilar. Topishmoqning faqat tashqi, yaqqol jihatini idrok qiladilar, ko'chma ma'nolarini ko'ra bilmaydilar, badiiy obrazni his qilmaydilar, qochirimlarini tushunmaydilar.

Bola predmet belgilarini sanab o'tishga asoslangan topishmoqlarni topa bilgan holda metaforik, ko'chirimli topishmoqni oddiy tasvirlash sifatida idrok qiladi.

Topishmoqlar aytish, eshitish hamisha maktabgacha ta'lim yoshidagi kichkintoylarning ezgu niyatlari bilan hamohang bo'lgan. Har bir topilishi kerak bo'lgan jumboq - bu davr bolalarini ham o'ylashga, fikr yuritishga, o'zlariga xos yo'sinda izlanishga, sezgir, jiddiy, topqir bo'lishga nisbatan mayllarini uyg'otgan. Chunki ko'p predmetli topishmoqlar bog'cha bolalari uchun yanada qiziqarli bo'lgan. Bu holni butun mamlakatimiz bo'ylab bolalariga, nabiralariga, qo'shni bolakaylarga alla-qo'shiq, ertak, maqol, topishmoq aytib berib yurgan ota-onalar, buvi-bobolar, mahalla ertakchilari huzurida bo'lganimizda aniq sezdik. Bu ish o'z-o'zidan yoki birdaniga ko'ngildagidek chiqmaydi. Tinimsiz izlanish, bolakaylarni qiziqtirish, ularni topqirlikda bir-birlariga o'rnak, ibrat qilib ko'rsatish tufayli erishiladi. Takrorlash, takrorlashlardan keyin bola jumboqlarni yechishga, bu

---

<sup>1</sup> M. Jumaboev “Topishmoqlarning ilmiy ta'limiy ahamiyati” 3-4 bet

haqda o'ylashga havasi keladigan bo'ladi. Bu yerda shu narsani ham ta'kidlab o'tish lozimki, bolalarga aytib beriladigan topishmoqlarning mavzusi yoshlarning yoshiga, qiziqishlariga yaqin bo'lsa yana nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Mana bu jumboq bolalar uchun juda qiziqarli. Ammo bolalar bu jumboqni yechishda qiynaladilar. Chelaklik Rahim bobo jumboqni qayta-qayta takrorladi. Lekin yechimi yo'q. Hamma hayron: «Dunyoda to'rtta narsa yo'q. Kichkintoylar o'zlaricha, turli variantlarni aytib ko'rishdi. Bobo ma'qullamadi... «yo'q» - deb turaverdi. Axiyri Ra'no:

- Bobo, biz yutqazdik. O'zingiz yechib bera qoling, - dedi. Rahim bobo:

- Bolalarim, - dedi u, - mana ochiq havoda o'tiribmiz. E'tibor bering osmonning ustuni bormi? - so'radi nabiralaridan. Bolalar:

- Yo'q,- deyishdi.

- Botir boboning uyida hovuz bor. O'sha hovuzning qopqog'i bormi?

- Yo'q, yo'q.

- Hammangiz kechasi ko'rpa ostida uxlaysizlar. Ayting-chi, ko'rpaning yengi bormi?

- Yo'q, yo'q.

- Har bir xonadonda oshpichoq bor. Oshpichoqning qini bormi?

- Yo'q, yo'q.

- Xulosa qiladigan bo'lsak: osmonning ustuni, hovuzning qopqoqi, ko'rpaning yengi, oshpichoqning qini yo'q ekan-da, to'g'rimi, bolalarim. Bolalar:

- To'g'ri, to'g'ri! – deb yuborishdi.

Bolalar orasida indamay jimgina turgan Rahim boboning nabirasi Zokir qo'l ko'tarib:

- Bobojon, men ham bitta topishmoq aytsam bo'ladimi? – deb qoldi.

- Aytaqol, bolam! - dedi bobo uni erkalab boshini silar ekan.

- Ikki boshli, to'rt oyoqli,

Ikki oyoqli, to'rt quloqli,

To'rt quloqli, orqasida

bir dumi bor.

- E, bu topishmoqni o'tgan galda topganmiz. Bu ot, otga mingan odam, - deb yubordi Zulfiya.

Rahim bobo tomonidan aytilgan quyidagi topishmoqlarni bolalar o'ylab, xotirjamlik bilan yechishlari bizni behad shod etdi.

Bobo:

- U nimadir, yer yuzini suv olgan?

Bolalar:

- Yomg'ir bo'lar yer yuzini suv olgan!

Bobo:

- U nimadir, orqasida og'zi bor?

Bolalar:

- Tegirmondir, orqasida og'zi bor!

Bobo:

- U nimadir, suv ichida joni bor?

Bolalar:

- Baliq bo'lar suv ichida joni bor. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, inson esi, hushi, ziyrakligi, bilimdonligi bir masalani, bir ishni takrorlash, mashq qilish tufayli rivojlanib borishini Rahim bobo atrofida o'tirgan bolalar isbotlab berishdi. Rahim bobo aytgan topishmoqlari orasida oddiylari ham, murakkablari ham bo'ldi. Yillar davomida bobodan ertak, maqol, rivoyat, topishmoq tinglab tobora maktab yoshiga qarab borayotgan bolalarga aytilgan topishmoqlarning murakkablari ham bo'ldi. Boboning har bir gapga, har bir tomishmoqqa alohida urg'u berib, xotirjam, alohida mehr, qiziqish bilan aytgan topishmoqlari asta o'z yechimini topa boshladi:

Uzun-uzun arg'amchi,  
Buni toping, dilbarim!  
Undan uzun arg'amchi,  
Buni toping, dilbarim!  
Opirmog'u sopirmoq,  
Buni toping, dilbarim!  
Igna uchi yaltiroq,  
Buni toping, dilbarim<sup>2</sup>!

Boboning nabiralariga shirin tabassum bilan boqib, muloyimgina qilib «dilbarim!» deb qo'yishi kinkintoylarning keksalarga nisbatan, bobolarga nisbatan mehrlarini jo'sh urdirib yubordi. Ularda xuddi bobo kabi bilimdon, aqlli, sertabassum bo'lishdek buyuk orzular paydo bo'lganligini ularning chaqnab turgan muloyim ko'zlaridan, chehralaridagi kulgilaridan payqab olish qiyin emas edi. Bu esa tarbiyaning yaqqol ko'rinishi, ta'siri, oliy namunasi hisoblanadi.

Topishmoq ham o'z yechimini topa boshladi. Har kuni ertak, tomishmoq tinglab, gapirib, topib o'rgangan bolalar jumboqning javobini berish uchun qo'l ko'tara boshladilar. Bobo shirin kulgi bilan qo'l ko'tarib turgan bolalarga bir-bir razm solib, SHohida degan qizaloqqa izn berdi. U yarim chuchuk tili bilan (chunki u «R» harfini y deb aytar ekan) javob bera boshladi:

Uzun-uzun arg'amchi,  
Yo'l degani emasmi?  
Undan uzun arg'amchi,  
Daryo degani emasmi?  
Opirmog'u sopirmoq,  
Un degani emasmi?  
Igna uchi yaltiroq,  
Chiroq degani emasmi?

Topishmoq topgan Shohida qizchani bobo peshonasidan o'pib, «Barakalla qizim, jumboqni to'g'ri topding. Tiling burro, aqling bundan ham ziyoda bo'lsin!» deb rag'batlantirdi.

O'tirishga yakun yasashdan oldin Rahim bobo o'zlariga hamsuhbat bo'lib o'tirgan Tog'ay bobo bilan bir-birlariga jumboq aytib ketishdi. Davrada o'tirganlar jumbog'-u javobni huzur qilib tingladilar. Ulardan ayrimlarini namuna sifatida eslab o'tish mumkin.

---

<sup>2</sup> Tomishmoqlar. T., 1981 yil, 179-bet.

O'ylaymizki, kunda, kunaro keksalarning o'z nabiralari to'plab, ularga ertak, topishmoq, maqol, masal aytib berishlari maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ma'naviy ruhda tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Zero, zamon, davr talabi ham shunday.

Bolaning ona tilini o'rganishiga yordam berayotib, eng avvalo nutqning benuqsonligiga intilgan holda tarbiyachilar bolalar nutqi yorqin, rang - barang, obrazli bo'lishiga hamda o'z xalqi til boyligini aks ettirishi haqida kam g'amxo'rlik qiladilar. Buning hammasi bog'lanishli nutqini o'stirishni o'rgatishni yengillashtiradi.

Tarbiyachilar yirik folklorshunoslar M.Alaviya, M.I.Afzalov, Z.Xusainova T.Mirzaev va boshqalar tomonidan to'plangan materiallardan foydalanish imkoniyatiga ega. Masala faqat shundaki, ushbu to'plamlardan eng yaxshilarini va bolalar tushunishi osonlarini ajratish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Akramova, X. (2020). Aqli zaif y'quvchilarni kompyuter texnologiyalari asosida mehnat k'unikmalarini shakllantirish. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(16), 1-9. извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4013](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4013)

2. Akramova, X. (2020). Коррекционно-педагогические обобенности формирование навыков здорового образа жизни у детей с умственной осталостью в семейных условиях. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 15(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/918](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/918)

3. Akramova, X. (2020). Социально-педагогическая работа с детьми дошкольного возраста. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 7(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/674](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/674)

4. Akramova, X. (2020). Didactic Foundations of Labor Activity for Children with Intellectual Disabilities. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 7(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/682](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/682)

5. Akramova, X. (2020). Методика формирования общих трудовых навыков у умственно отсталых учеников через компьютерные мультимедийные программы. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(12), 1-7. извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/3182](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3182)

6. Akramova, X. (2020). Methods of developing general work skills in mentally retarded students through information programs. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 7(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/697](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/697)

7. Akramova, X. (2020). Peculiarities of the labor activity of mentally retarded pupils. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 15(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/897](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/897)

8. Akramova, X. (2020). Aqli zaif o'quvchilarda axborot dasturlari vositasida umumiy mehnat ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 15(1). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/916](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/916)

9. Akramova, X. (2020). Замонавий мультимедиа воситаларидан фойдаланиш - муваффакият гарови . *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(12),

1-5.                           извлечено                           от                           [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/3162](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3162)

10. Акрамова, Х. (2020). Мактабгача ёшдаги болалар билан олиб бориладиган ижтимоий педагогик фаолият технологияси. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(16), 1-5. извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/3994](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3994)

11. Акрамова, Х. (2020). Mehnat darslarida aqli zaif bolalar nutqini o‘stirishning o‘ziga xosligi. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(16), 1-5. извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/4025](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4025)

12. Muzaffarova, X. (2020). Identification of mentally retarded children: Identification of mentally retarded children. *JSPI Scientific Publications Archive*, 5 (1). Retrieved from [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/556](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/556)

13. Muzaffarova, X. (2020). Boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik maxorati. *JSPI Scientific Publications Archive*, 1 (14), 1-1. Retrieved from [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/3790](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3790)